



BRITAIN'S CENTRAL ASIAN POLICY IN THE 19TH CENTURY AND THE EAST INDIA COMPANY

F.U. Rayimov

Lecturer

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: East India, expansion, Britain, Central Asia, Russia, Afghanistan, India, Bukhara.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: In the 19th century, Central-Asiatic region has a special strategic significance and a political map. In this period, the region became the center of geopolitical rivalry between the British and Russian empires - political warfare, known in history as the "Big Game". The main goal of British colonial policy is to protect India from Russian influence and strengthen its economic and political position in Central Asia. V state na osnove istoricheskikh istochnikov analiziruetsya politicheskaya deyatelnost Anglii v Tsentralnoy Azii v XIX veke, process ustanovleniya diplomaticheskikh otnosheniy s Bukharskih emiratom, a takje deyatelnost britanskoy razvedki v regione.

XIX ASRDA ANGLIYANING MARKAZIY OSIYO SIYOSATI VA OST-INDIYA KOMPANIYASI

F.U. Rayimov

O'qituvchisi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: Ost-indiya, ekspaniya, Britaniya, Markaziy Osiyo, Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Buxoro.

Annotasiya: XIX asrda Markaziy Osiyo hududi dunyo siyosiy xaritasida alohida strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrda mintaqqa Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi geosiyosiy raqobat — tarixda "Buyuk o'yin" (The Great Game) deb nom olgan siyosiy kurash markaziga aylandi.

Ingliz mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi Hindistonni Rossiyaning ta'siridan himoya qilish, shu bilan birga, Markaziy Osiyoda o'z iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlashdan iborat edi. Mazkur maqolada XIX asrda Angliyaning Markaziy Osiyodagi siyosiy faoliyati, Buxoro amirligi bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish jarayoni, shuningdek ingliz razvedkasining mintaqadagi harakatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

ПОЛИТИКА АНГЛИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XIX ВЕКЕ И ОСТ-ИНДСКАЯ КОМПАНИЯ

Ф.У. Раимов

Преподаватель

Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ост-Индия, экспансия, Британия, Средняя Азия, Россия, Афганистан, Индия, Бухара.

Аннотация: В XIX веке Центрально-Азиатский регион начал приобретать особое стратегическое значение на политической карте мира. В этот период регион стал центром геополитического соперничества Британской и Российской империй – политической борьбы, известной в истории как «Большая игра». Главной целью британской колониальной политики была защита Индии от российского влияния и укрепление её экономических и политических позиций в Центральной Азии. В статье на основе исторических источников анализируется политическая деятельность Англии в Центральной Азии в XIX веке, процесс установления дипломатических отношений с Бухарским эмиратом, а также деятельность британской разведки в регионе.

Kirish. XVIII asrda Angliya Hindistonni boshqarish huquqini to'liq o'z qo'liga oldi va mamlakatning asosiy hukmdoriga aylandi. U yangi hududlar va xalqlarni bosib olish maqsadida tinimsiz urushlar olib bordi. XIX asrning birinchi yarmiga kelib, uning mustamlakalari butun Hindiston hududini qamrab olib, Afg'oniston chegaralarigacha yetib bordi. Afg'onistonning o'zi esa Sharqiy Hindiston kompaniyasi va Britaniya hukmron doiralarini unchalik qiziqitmas edi; ularning diqqat markazi Markaziy Osiyoga qaratilgan bo'lib, bu hudud strategik, iqtisodiy va

siyosiy jihatdan nihoyatda qulay joylashuvga ega deb hisoblanardi. Markaziy Osiyo nafaqat boy tabiiy resurslari, iqlimiy imkoniyatlari va iqtisodiy salohiyati, balki o'zining qulay geografik o'rni bilan ham ingliz strateglari va siyosatchilari nazarida Rossiyaga qarshi tarixiy kurashda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etilgan edi.

Sharqiy Hindiston kompaniyasi Markaziy Osiyoga o'zining malakali vakillari va razvedka xodimlarini yuborish orqali kirib borishga urindi. Ularning vazifasi yo'llar, iqlim, daryo rejimlari va muhim geografik nuqtalarni o'rganishdan tashqari, Buxoro, Xiva va Qo'qon hukmdorlarini Angliya bilan siyosiy aloqalar o'rnatishga undash hamda ingliz tovarlari uchun ularning bozorlarini ochishga da'vat etishdan iborat edi[1].

Bunday missiyalarning dastlabki vakillaridan biri Aleksandr Byorns edi. U 1813-yilda Sharqiy Hindiston kompaniyasi rahbariyati tomonidan Buxoroga yo'naltirilib, yo'llarni, mahalliy bozorni o'rganish va Hindiston bilan Buxoro amirligi o'rtasida siyosiy hamda savdo aloqalarini yo'lga qo'yish vazifasini olgan edi. Byorns Buxoroga Hindistondan ikki yo'l orqali borish mumkinligini aniqladi: biri Ludiyonadan Pesho'var, Qobul, Balx va Qarshi orqali o'tgan; ikkinchisi esa Tehrondan Mashhad va Chordjo'y orqali borilgan yo'l edi[2].

Mavzuga oid manba va adabiyotlar sharhi. XVIII asrda inglizlar Hindistonni boshqarish huquqni to'liq o'z nazoratlariga olganligidan foydalanib unga chegaradosh bo'lgan Afg'oniston va Markaziy Osiyoda ham o'z ta'sir doiralarni oshirishga bo'lgan urinishlari Kayen J.U. "History of the war in Afganistan" (Afg'onistondagi urush tarixi) asarida aks etgan[3]. Yuldasheva F. "Из истории английской колониальной политики в Афганистане и Средней Азии" (Afg'oniston va Markaziy Osiyodagi ingliz mustamlakachilik siyosati tarixidan)[4]. deb nomlangan asarida muallif inglizlar tomonidan Markaziy Osiyoga yuborilgan ekspeditsiyalar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan. Халфин. Н.А. "Политика России в Средней Азии. 1857-1868 гг. в переводе на английский" (Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosati)[5]. Хидояттов Г.А. Британская экспансия в Средней Азии. (Britaniyaning Markaziy Osiyoga ekspansiyasi)[6]. asarlaridan ham ushbu maqolada keng foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - ko'proq tarixiylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XIX asrda Angliyaning Markaziy Osiyo siyosati va Ost-Indiya kompaniyasi faoliyatiga bag'ishlangan.

Ma'lumki, XVIII – XIX asrlarda Markaziy Osiyo tarixi murakkab siyosiy jarayonlar kechgan davr bo'lib, Inglizlar va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi doimiy raqobat mintaqa xalqlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita ta'siri katta bo'lgan. Shuning uchun ham mintaqa tarixini o'rganishda Hindiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyo tarixini bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rsatib, qiyosiy- mantiqiy tahlil metodidan foydalanildi.

Byorns Amudaryoda kemasozlik imkoniyatiga alohida e'tibor qaratib, daryo bo'ylarida o'rmonlarning ko'pligini qayd etgan va bu yerda butun flotlarni barpo etish mumkinligini ta'kidlagan. U iqtisodiy va strategik nuqtayi nazardan Amudaryoning kelajakda nihoyatda muhim rol o'ynashi mumkinligi haqida xulosa chiqargan. 1838-yilda Londonda nashr etilgan kitobining asosiy bo'limida u Markaziy Osiyo xonliklarining tabiiy boyliklari va iqtisodiy imkoniyatlarini batafsil tavsiflagan. U ingliz savdosining Sharqdagi bosh markazi sifatida Buxoroni tanlashni tavsiya etgan va bu yerda ingliz matolari, shoyi va choyga talab tez o'sib borayotganini qayd etgan.

Byornsning hisobotlari Sharqiy Hindiston kompaniyasiga Markaziy Osiyo imkoniyatlarini ochib berdi. Shu asosda ingliz siyosatchilari Rossiyaning bu mintaqaga siljishini to'xtatish va xonliklar bilan siyosiy hamda iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish yo'lida yangi diplomatik strategiyani ishlab chiqdilar. Bu siyosat tashqi ko'rinishda mudofaa xarakterida bo'lib tuyulsa-da, aslida u faol hujumkor strategiya edi.

1830-yillar oxirida inglizlar Markaziy Osiyo xonliklari bilan bevosita chegaradosh bo'lish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborishdi. Byorns o'z hisobotida inglizlar bu hududda mustahkam tayanch punkti tashkil etishlari zarurligini, bu joy nafaqat harbiy garnizon joylashuvi uchun, balki ingliz tovarlari uchun tranzit baza sifatida ham xizmat qilishi kerakligini aytgan. U bunday nuqtaning eng maqbul joyi sifatida Hirotni ko'rsatgan — bu shahar butun Afg'onistonning don ombori hisoblangan va u orqali Buxoro, Xiva hamda Marvga yo'llar o'tgan.

1837-yilda inglizlar "Hirotni forslar hujumidan himoya qilish" bahonasida mayor Todd boshchiligida harbiy otryad yuborib, G'irotni Markaziy Osiyodagi kengroq siyosiy operatsiyalar tayyorlov bazasiga aylantirishdi. Bu yerdan polkovnik Stoddart Buxoroga jo'natilib, amirni Angliya bilan harbiy ittifoq tuzishga ko'ndirishga urindi. 1839-yilda polkovnik Konolli Xivaga yuborilib, uch o'zbek xonligini Rossiyaga qarshi harbiy ittifoqqa birlashtirish vazifasini oldi. Shuningdek, 1840-yilda mayor Todd Xivaga 33 yoshli kapitan J. Ebbotni qimmatbaho sovg'alar bilan yubordi. Ebbot Xiva xoniga Angliya bilan do'stona aloqalar o'rnatishni taklif qildi va Rossiyaga qarshi kurashda yordam berilishi mumkinligini imoladi. Ushbu "tashriflar"ning asl maqsadi esa turkman qabilalari rahbarlari bilan aloqalar o'rnatib, ularni Angliya ittifoqchisiga aylantirish edi.

Birinchi ingliz-afg'on urushidagi mag'lubiyat ham inglizlarning Markaziy Osiyo xonliklari bilan aloqa o'rnatish faoliyatini to'xtatmadi. Endi ularning agentlari bu hududga Eron orqali yuborila boshlandi. 1843-yil noyabrida mayor J. Vulf Buxoroga jo'natilib, amir ustidan ta'sir o'rnatish, amirlikning harbiy salohiyatini o'rganish va turli ijtimoiy qatlam vakillari bilan aloqa o'rnatish topshirig'ini oldi. Biroq u Buxoroda josuslikda gumon qilinib, arang qutulib chiqdi.

1838–1842-yillardagi ingliz-afg'on urushi va 1857-yilgi Hindistondagi sipoylar qo'zg'oloni Britaniya hukmron doiralarini Markaziy Osiyodagi siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.

Endi ular avvalgidek maqsadni saqlab qolgan holda, faqat ish usullarini o'zgartirishga qaror qildi. Shu davrda Angliya Hindiston bilan Afg'oniston o'rtasidagi barcha mayda knyazliklarni tugatdi.

1844-yilda Hindistonga yangi vitse-qirol lord Garding tayinlanib, Panjobni bosib olish ishlarini boshladi. 1846-yilda ingliz qo'shinlari sikhlar qarshiligini yengib, Lahorga kirib bordi. 1849-yilda ikkinchi sikh urushi natijasida lord Dalxauzi Panjobni butunlay anneksiya qildi. 1856-yilda lord Kaning forslar bilan urush boshladi va Eronning Bushir va Mohammera shaharlarini egallab, sulh imzolashga majbur qildi[7].

1857–1858-yillardagi sipohiylar qo'zg'oloni ingliz hukmronligining zaif tomonlarini ochib berdi. Natijada 1858-yil 2-avgustda ingliz parlamenti “Hindiston to'g'risida qonun”ni qabul qildi, unga ko'ra Sharqiy Hindiston kompaniyasi tugatilib, Hindiston Britaniya imperiyasi tarkibidagi viloyatga aylandi. Bu o'zgarish Hindistonni xususiy kompaniya mulkidan butun ingliz burjuaziyasi mulkiga aylantirdi[8].

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, qo'zg'olon inglizlarning mahalliy aholi ustidan ta'sirining zaifligini ham ko'rsatdi. Faqat bir mish-mish — o'q-dorilarni cho'chqa yog'i bilan surtish haqidagi xabar — butun Hindistonda qo'zg'olon boshlanishi uchun yetarli bo'ldi.

Bu voqealar Rossiya tashqi siyosat doiralarini ham hushyorlikka chaqirdi. Aynan shu paytda Hindistondan Toshkentga inglizlarga qarshi kurashda yordam so'rab turli elchilar yuborilgan. Garchi bu so'rovlar odob bilan rad etilgan bo'lsa-da, ular Rossiya tomonidan e'tiborsiz qoldirilmadi.

Qrim urushi va Hindistondagi qo'zg'olon Markaziy Osiyoda rus-ingliz munosabatlarida burilish nuqtasi bo'ldi. 1881-yilda Rossiya tashqi ishlar vaziri N. Girening Angliyadagi elchiga bergan ko'rsatmasida shunday deyiladi: “Qrim urushi bizning Angliya bilan munosabatlarimizda hal qiluvchi burilish yasadi. U Rossiyani Angliyaga qarshi samarali vosita izlashga majbur etdi — bu vosita faqat dengizdagi ustunligiga qarshi emas, balki u boshqa davlat bilan Rossiyaga qarshi ittifoq tuzgan taqdirda ham samarali bo'lishi kerak edi. Ana shu sababdan bizning Markaziy Osiyoga qarab siljishimiz boshlandi[9]”.

Xulosa. Shu tariqa, ruslarning Markaziy Osiyodagi faolligi Hindistondagi qo'zg'olondan ilhomlangan edi. A. Gorchakov esa Rossiya ekspansiyasining tabiiy chegaralari sifatida Kopetdog', Pomir yoki Amudaryoning yuqori oqimini ko'rgan. Ingliz tarixchisi D. Gillardning xulosalari o'ziga xos va diqqatga sazovor. U 150 yildan ortiq vaqt davomida Angliyada shakllanib kelgan “rus tahdidi” konsepsiyasidan chiqib, masalaga yangicha ilmiy yondashuv bilan qaradi. Shu bois O'zbekiston tarixchilari ham o'z navbatida sovet davri “ingliz tahdidi” konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishlari lozim. Sababi bugungi kunga kelib tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi savdogarlari butun dunyo

bo‘ylab keng savdo faoliyatlarni olib borgan bo‘lib bunga ingliz hukumron doira vakillarning katta qo‘llab-quvvatlashi sabab ularni yanada samarali harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хидоятов Г.А.. Британская экспансия в Средней Азии. Ташкент. 1981.
2. Бернс А. Путешествие в Бухару. Ч.III.М.1850.
3. Kade J.W. History of the war in Afganistan. London.1840.
4. Юлдашева Ф. Из истории английской колониальной политики в Афганистане и Средней Азии. Ташкент. 1963.
5. Халфин. Н.А. Политика России в Средней Азии. 1857-1868 гг. в переводе на английский. Лондон, 1964.
6. Хидоятов Г.А. Британская экспансия в Средней Азии. Ташкент, 1981.
7. Смирнова Л.М. Англо-русское соперничество в Центральной Азии в 70-90-е годы XIX века
8. Хопкирк П. БОЛЬШАЯ ИГРА: О РАЗВЕДКЕ В ВЫСОКОГОРНОЙ АЗИИ
9. Vijay Kumar BRITISH RULE IN INDIA (1757-1857)